



TARBIYA KOLONNIYASI O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Hayitov M.R.

TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: ta‘lim, modernizasiyalash, tarbiya kolonniyasi, kreativlik, iqtidor, iste‘dod, motivatsiya, emboliya, bakteriya, meva.

Ключевые слова: образование, модернизация, воспитательная колония, креативность, талант, способности, мотивация, эмболы, бактерии, плод.

Key words: education, modernization, educational colony, creativity, talent, abilities, motivation, emboli, bacteria, fetus.

Ta‘lim tizimini modernizasiyalash jarayonida global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyatda faol, intellektual salohiyatli, iqtidorli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularning iqtidorini rivojlantirish orqali belgilangan vazifalarni kutilmagan vaziyatlarda tezkor hal etish qobiliyatiga ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Aynan iqtidorli yoshlar mamlakatning iqtisodiy jihatdan yuqori pog‘onalarga chiqishiga stimuly bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari orasida iqtidorli va noyob iste‘dod sohiblari ko‘pchilikni tashkil etadi. Lekin shu bilan bir vaqtda hayyotda o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlay olmagan, o‘z yo‘lidan qandaydir sabablarga ko‘ra adashgan yoshlarimiz ham afsuski topiladi. Bu yoshlarimiz albatta boshqa tengdoshlaridan psixologik jihatlari bilan ajlarib turadi. Tarbiya kolonniyalaridagi jazo muddatini o‘tash uchun keltirilgan tarbiyalanuvchilar (mahkumlar)ni ahloqan tarbiyalash, tarbiyaning turli usullaridan foydalangan holda ularni jamiyatga sog‘lom fikrlaydigan shaxs sifatida qaytarish muhim sanaladi. Bunda tarbiya koloniyasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar birinchi navbatda ularni tarbiya berish bilan bir qatorda barcha o‘quv fanlaridan sifatli ta‘lim berish, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda muayyan bir kasb-hunarga o‘rgatish, kelajakda nafi tegadigan ish bilan ta‘minlash hamda bo‘sh vaqtlarini


turli to'garaklarga jalb qilish orqali tarbiyaviy ta'sir choralari ko'rishlari kabi ustuvor vazifalar mavjud. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 apreldagi "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun umumiy ta'lim va kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 318-sonli qaroriga asosan koloniya qoshida Zangiota tumani xalq ta'limi bo'limining filial maktabi tashkil etilgan. Bu maktabda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan barcha o'quv fanlarining o'qitilishi yo'lga qo'yilgan.

Tarbiya koloniyasi tarbiyalanuvchilarini iqtidori, iste'dodi, qobiliyatlarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlash zarur. Boisi tarbiya koloniyalarida tahsil olayotgan yoshlar o'z hayotida adashgan holda o'zining aqli yetmay yoki boshqa shaxslarning tuxmat yoki buxtonlari yokida boshqa sub'yektiv va ob'yektiv sabablarga ko'ra bu muassasaga kelib qolganlari qancha, ular orasida iqtidorli, iste'dodli, yuqori darajada rivojlangan qobiliyatga ega bo'lganlari yo'q deysizmi albatta bor. Shuning uchun tarbiya koloniyasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar mazkur tushunchalarni mazmun-mohiyatini anglagan holda yondoshuvni tashkil etishi lozim.

"Iqtidor" arabcha - kuch-quvvat, qudrat, qodirlik degan ma'nolarni anglatadi. Iqtidor - insonning o'z hatti - harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub'yektiv munosabatidir. Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda iqtidor tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: 1) iqtidor bu – faoliyatning mavaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir; 2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar; 3) iqtidor bu – aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi; 4) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi. Iqtidorli odam chidamlilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi ijobiy fazilatlariga ega bo'ladi.

Iste'dod - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi. Qobiliyat – insonning shaxsiy salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi



1-rasm. Iqtidorlikning multiomilliy modeli
(F.Monks bo'yicha).

hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi.

Iqtidor, istedad, qobiliyat kabi tushunchalarning mohiyati va azmuni hamda uni rivojlantirish yuzasidan bir qator xorij olimlar A.M.Matyuskin, Dj. Renzulli, P.Torrens, F. Monks, K.Xellerning ishlari diqqatga sazovor hisoblandi.

A . M . M a t y u s h k i n iqtidorlikni bilish, hissiy-

ehtiyoj va erkin sohalarining integral tarkibiy tuzilish sifatida aniqlagan. Iqtidorlikni keng tarqalgan modellaridan biri amerikalik olim Dj. Renzulli modeli hisoblanadi. Muallif modelda iqtidorlikni uchta tavsifga to'xtalib o'tadi: intellektual qobiliyatlar, kreativlik va qat'iyatlilik (motivatsiya). Bundan tashqari Dj. Renzulli shaxs iqtidorini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tajriba asosidagi qulay atrof-muhit va bilimlarni ham e'tiborga oladi.

P.Torrens konsepsiyasida ijodiy qobiliyatlar, ijodiy ko'nikmalar, ijodiy motivatsiya ishtirok etadi. Shunday qilib, iqtidorlikni P.Torrens ijodkorlik bilan bog'laydi va uning fikricha, ijodkorlik odamning stressni yengishga kuchli ehtiyojidan kelib chiqib, to'liq bo'lmagan yoki noaniqlik sharoitida paydo bo'lgan jarayon hisoblanadi.

F. Monks tomonidan iqtidorlikning multiomilliy modeli ishlab chiqilgan(1-rasm). Xorijiy va mahalliy olimlarning iqtidorlik konsepsiyasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin – iqtidorlik tarkibida nafaqat insonning yuqori qobiliyati, balki shaxsiy aniqlangan tavsiflarning berilishi (yutuqlarga erishish, nazorat, o'z-o'zini baholash) va tashqi omillar (oila, maktab, mahalladagi muhit) ham muhim rol o'ynaydi.

K.Xeller tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra yuqori iqtidorli o'rta iqtidorlidan quyidagi shaxsiy ahamiyatli diagnostik parametrlar bilan farqlanadi: yuqori intellektual qobiliyatlar, kreativ qobiliyatlar, ancha tez o'zlashtirish va ajoyib xotira, intellektual qiziqish va bilimga chanqoqlik, nazoratni ichdan his etish va yuqori shaxsiy javobgarlik, shaxsiy samaradorlikka erishish va fikrlar mustaqilligi, o'z-o'zini adekvat baholash bilan bog'liq ijobiy akademik "Men" konsepsiyasi.



O'quvchilarga psixologik yondoshuvni amalga oshirishda talantni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Talantning ijtimoiy tarixiy tabiiy nuqtai nazaridan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Talant (yunon talanton qimmatbaho, noeb narsa, irsiy, tabiiy xislat degan ma'no anglatadi.) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan (yig'indisidan) iborat individual xususiyatdir. Talantning asosiy belgilari: a) muvaffaqiyatni ta'minlash; b) faoliyatni mustaqil bajarish; v) originallik unsurining mavjudligi; g) qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi; d) individual psixologik xislatligi; ye) ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyatligi kabilar.

Tarbiya kolonniyasi maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagoglar ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni psixologiyasini yaxshi o'rgangan holda o'z fanlarining mazmunidan kelib chiqqan holda kreativ topshiriqlardan samarali foydalanilishi va uning natijasida oliy o'quv yurtlariga kirishlari yoki ma'lum kasbga yo'naltirishlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi. Biz o'z tadqiqotlarimizda biologiya fani bo'yicha tarbiyalanuvchilarga o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda turli murakkablik darajalariga ega bo'lgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqib dars jarayonining barcha bosqichlarida foydalanishni amalga oshirdik. Biologiya fanining boshqa fanlardan asosiy farqlari bu tarik ob'yektlar bilan ishlashga qaratilganligidir. Natijada tarbiyalanuvchilarning tabiatga nisbatan qolaversa Vatanga bo'lgan ongli munosabatlari tiklanadi.

Tarbiya kolonniyasi tarbiyalanuvchilarini kreativ fikrlashlarini rivojlantirish, kelgusida muayyan kasbga egallashlari uchun zamin tayyorlaydigan biologik topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Quyida biologiya darslarida foydalaniladigan topshiriqlardan namunalar keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Tarbiya kolonniyasi tarbiyalanuvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida biologiya fanidagi mavzulardan biri "Nafas olish kasalliklari" mavzusi asosida topshiriqlarini berish mumkin.

1-topshiriq. Kasb kasaliga chalingan kishilarda, g'ovvozlar yoki chuqur konlarda ishlaydigan insonlar (ba'zan normal insonlarda ham)da yuqori bosimli biror bir muhitdan birmuncha pastroq bosimli boshqa muhitga birdan o'tilganda to'qimalarda erigan azot pufakchalar hosil qilib, qon tomirlarga tiqilib eboliya hosil qilishi aniqlangan. Emboliya insonning qaysi organida ro'y berganiga qarab turlicha bo'ladi. O'tkir kasb kasalligida tana qichshadi, kishining bo'g'imlari, muskullarida og'riqlar bo'ladi, bemorning boshi



aylanadi, og‘riydi, qornida dam hosil bo‘ladi, qulog‘ida esa shang‘illash paydo bo‘ladi, qayt qiladi, tanasining muvozanatini bir xilda saqlay olmaydi; ba‘zan gapirish qobiliyat buziladi, ko‘zlar ko‘rmay qolishi mumkin, bemor hushdan ketishi natijasida tanasi falajlanadi, miokard yoki o‘pka infarkti kuzatiladi. Hatto uning hayoti uchun muhim organlarga ko‘plab pufakchalar to‘planishi, uning o‘limiga ham sababchi bo‘ladi. Aytinchi hurmatli o‘quvchilar bunday holatga duch kelganda nima qilish zarur. Nima uchun azot pufakchalar hosil qiladi buning boisi nimada? Javobingizni quyidagi qatorga bayon eting.



Javob: _____

Biologiya darsligidan o‘rin olgan barcha mavzularda murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar tuzish mumkin. Xususan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan biologiya darsligidagi “Bakteriyalar. Protoktistalar. Zamburug‘lar” mavzusini o‘rganish jarayonida quyidagi kreativ mazmundagi topshiriqdan foydalanish tavsiya etiladi:

2-topshiriq. Bakteriyalarning ko‘payishi bakteriya hujayrasining qoq o‘rtasidan ikkiga bo‘linishi bilan sodir bo‘ladi. Qulay sharoitda bakteriya hujayralari har 20-30 daqiqada bo‘linib, yosh bakteriyalarni vujudga keltiradi. Agar bir bakteriya hujayrasini minimum 20 daqiqada bo‘linish sodir bo‘lsa 7 soatdan so‘ng nechta bakteriya hujayrasi vujudga kelishini hisoblab chiqing? (Tashqi muhitning ta‘siri hisobga olinmasin).

Mazkur turdagi topshiriqlarni tarbiya kolonniyasidagi tarbiyalanuvchilar dastlab birdaniga proporsiya qilish usuli bilan ishlashga harakat qilishi tabiiy bir hol. Lekin olib borgan tadqiqolarimiz va o‘quvchilarning qo‘lga kiritgan natijalari ularni birdaniga javob toppish emas har bir berilgan topshiriqning zamirida fikrlash, mushohada qilishga undaydigan jihatlar mavjudligi asoslanildi.

Aslida bu topshiriqning yechimi quyidagi yondoshuv asosida topiladi.

- 1) 1-soat 60 minut bo'lsa,
7 soat $X=420$ minut ekan.


2) Bakteriyalar 20 minutda progressiv ko'payishini hisobga olish zarur.

20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20
2	4	8	16	32	64	1	2	5	1	2	4	8	1	3	6	1	2	5	1	2
						2	5	1	0	0	0	1	6	2	5	3	6	2	0	0
						8	6	2	2	4	9	9	3	7	5	1	2	4	4	9
									4	8	6	2	8	6	3	0	2	8	7	7
													4	8	6	7	1	8	5	1
															2	4	8	7	5	6
															4	4	8	6	2	2

Javob: 7 soatda bir bakteriyadan 2097152 dona bakteriya hujayrasi hosil bo'lishi aniqlandi.

Tarbiya kolonniyasida tahsil olayotgan o'quvchilarga quyidagi tipdagi topshiriqni berish orqali ularda mevalarning turlari haqidagi ilmiy tushunchalarni rivojlantirishga asos bo'ladi.


3-topshiriq. Quyida nomlari berilgan ho'l va quruq mevalarni klasterga joylashtiring: 1) O'rik; 2) Bug'doy; 3) Shaftoli; 4) Pamidor; 5) Mosh; 6) Sholi; 7) Nok; 8) Makkajo'xori; 9) Achambiti; 10) G'o'za; 11) Olcha; 12) Lola; 13) Qovun; 14) Suli.



Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan tipdagi topshiriqlardan tarbiya kolonniyalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar har bir tashkil qilinadigan mashg'ulotlarida foydalanilishi kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlanishiga muhim stimuly bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya kolonniyasida tahsil oladigan o'quvchilarni biologiya fanidan kreativ fikrlashlarini shaakllantirish maqsadida biologiya o'qituvchisi quyidagi namunalar va ularga o'shah topshiriqlardan foydalanishi tavsiya etiladi:

1. Ikki do'st to'qima haqidagi ma'lumotlarni o'rganib, shunday xulosaga kelishdi: o'simliklardagi qoplovchi to'qima bilan hayvonlarning epiteliy to'qimasi deyarli bir xil vazifani bajaradi, shuning uchun ularning to'qimalari bir xil hujayralardan tashkil topgan. Siz ularning xulosasini to'g'ri deb hisoblaysizmi?
2. Novdaning tuzilishi va novda turlarining mental xaritasini tuzing.



3. Avstraliyaga inglizlar olib kelgan sebarga (qo‘ylar uchun yem-xashak) o‘simligi har yili ekilar edi. Sebarga yaxshi o‘sdi, qiyg‘os gulladi, lekin urug‘ bermadi. Shuning uchun sebarga urug‘larini Yevropadan qayta-qayta keltirish shart edi. Ushbu muammoning yechimi nimada?

4. Itlarning bosh miya katta yarimsharlari po‘stlog‘i operatsiya yo‘li bilan olib tashlanganida keyingi hayoti davomida shartli reflekslar umuman hosil bo‘lmagan. Nima sababdan itlarda shartli refleks hosil bo‘lmagan? Fikringizni asoslang.

5. Hech e‘tibor berganmisiz, tuxumdan chiqqan jo‘jalar dastlab ko‘zga ko‘ringan hamma narsani cho‘qib ko‘radi. Keyinchalik ular yeb bo‘ladigan va yeb bo‘lmaydigan narsalarni farqlashni o‘rganadi. O‘z egasini taniydigan, uning ovozigina e‘tibor beradigan bo‘lib qoladi. Bu holatni qanday izohlaysiz? Jo‘jadagi bunday o‘zgarishlarning asl sababini qaysi biologik jarayon bilan tushuntirish mumkin deb o‘ylaysiz?

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [https:// lex.uz/ docs/http: //lex.uz / ru/docs/5841063](https://lex.uz/docs/http://lex.uz/ru/docs/5841063)
2. Бершадский Б.Е., Гузеев В.В. Дидактические и психологические основания образовательной технологии. [Текст] / Бершадский Б.Е., Гузеев В.В. /- М. 2003. -С.144-146.
3. Rahmatov va boshqalar Biologiya o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. 7 - sinf. –T.: – 2022. – 160 b.
4. Saparov K. A. va boshqalar Biologiya: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7 - sinfi uchun darslik. –T.: “Zukko”, 2022. –176 b.
5. Матушкин Н. Н., Столбова И.Д. Формирование перечня профессиональных компетенций выпускника высшей школы// Высшее образование сегодня. - 2007. - № 11.–С. 28 - 30.
6. Mavlonov O., Tilovov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi): Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8 - sinfi uchun darslik. –T., 2019. –192 b.

РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada tarbiya koloniyasi tarbiyalanuvchilarini biologik topshiriqlar asosida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish va uning pedagogik hamda psixologik jihatlari bayon etilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье описано развитие творческих способностей детей воспитательной колонии на основе биологических задач и ее педагогических и психологических аспектов.

SUMMARY

This article describes the development of creative abilities of children in a correctional colony based on biological tasks and its pedagogical and psychological aspects.